

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON, 2024

XIVA XONLIGI HUNARMANDCHILIGIDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI

Bakdurdiyeva Qunduz Quvondiq qizi

Ma'mun universiteti Tarix kafedrasи o'qituvchisi

g-mail: yakubovakilara@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Xorazm vohasidagi an'anaviy hunarmandchilikning ijtimoiy-iqtisodiy hayotda tutgan o'rni, shuningdek, Xiva xonligida hunarmandlar tayyorlashning muhim jihatlari va ustoz-shogirdlik an'analariga oid ma'lumotlar tarixiy yozma manbalar, shuningdek, arxeologik, etnografik manbalar va arxiv hujjatlari asosida yoritib berildi.

Kalit so'zlar: Xalfa, tsex, kalontar, Bayi joyz, Xatti ijara, Xatti madiyun, waqf, waqfnoma, kamarbasta, ulpagar, peykal, kunlikchilar.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о роли традиционных ремесел Хорезмского оазиса в социально-экономической жизни, а также важные аспекты подготовки ремесленников в Хивинском ханстве и традициях мастерского подмастерья, а также исторические письменные источники, а также археологических, этнографических источников и архивов, объяснялось на основе документов.

Ключевые слова: Халфа, цек, калонтар, Байи джойз, Хатти иджара, Хатти мадиун, вакф, вакфнама, камарбаста, улпагар, пейкал, поденные работники.

Abstract: This article provides information on the role of traditional crafts in the Khorezm oasis in the socio-economic life, as well as important aspects of the training of craftsmen in the Khiva Khanate and the traditions of master-apprenticeship, as well as historical written sources, as well as archaeological, ethnographic sources and archives. was explained on the basis of documents.

Key words: Halfa, tsex, kalontar, Bayi joyz, Hatti ijara, Hatti madiyun, waqf, waqfnoma, kamarbasta, ulpagar, peykal, daily workers.

O'rta Osiyo xonliklaridagi kabi Xiva xonligida ham hunarmandlar orasida "usta" maqomi an'anaga ko'ra avloddan-avlodga o'tib kelgan, ammo hunarmand ustalarni tayyorlashda "ustoz-shogirdlik" maktabi alohida ahamiyat kasb etgan. XVI–XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligining barcha hududlarida hunarmandchilik aholi xo'jalik faoliyatining asosini tashkil etgan sohalaridan biri edi. Xonlikda hunarmandlarni tayyorlashga katta e'tibor bilan qaraganlar. Bunda ularni tayyorlash borasidagi an'analar katta ahamiyatga ega edi. Bu jarayonda ustalar muhim o'rinn tutganlar.

Xivada usta o'z farzandiga hunarini o'rgatsa, bu shogird "usta" maqomini olishida "fotiha berish" marosimi o'tkazilmas ekan, ammo shogird usta avlodidan bo'lmasa unga fotiha berish marosimi o'tkazilgan [3.2022. Дала ёзувлари].

Xivada hunarmandchiligin tashkil etish borasida shakllangan an'analarni o'rganishda turli hujjatlarning ahamiyati kattadir. Ularning ichida tadqiqotda unumli foydalanilgan "Bay-i bat batat" – yer, uy-joy, savdo rastalari, ustaxonalar shu kabi mulklarning oldi-sotdisi rasmiylashtirilgan hujjat, "Bayi joyz" – mulkni sotib olish, sotish huquqini beradigan ijara turi rasmiylashtirilgan hujjat, "Ibro" – o'z shikoyat, talab va da'volaridan voz kechish, "Xatti ijara" – yer, do'kon, pul kabi mulklarni ijaraga olish rasmiylashtirilgan hujjat, "Xatti madiyun" – qarzdorlik tilxatlari, "Rivoyat"lar – musulmon qonunchiligi bo'yicha chiqarilgan fatvolar, "Vaqfnoma" – diniy yoki xayriya muassasalari, masjid, qabriston, madrasalar foydasiga ajratilgan mulklar rasmiylashtirilgan hujjatlardan tashkil etadi [4.2001.C.3].

O'rta Osiyo tarixiy manbalaridan ma'lumki, shogirdlarga "usta" maqomini berish marosimi odatda hunarmandlarning yig'ilishlarida juma kunlari o'tkazilgan. An'anaga

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON, 2024

muvofiq, hunarmandlar uyushmasining taklif etilgan barcha a'zolari juma namozidan so'ng masjiddan chiqib, "usta" maqomini oluvchi hunarmandning uyiga borganlar va shogird ularni choy, shirinliklar va osh bilan mehmon qilgan. Keyin uyushma boshlig'i "kalontar" yoki uyushma a'zolaridan biri "kamarbasta" an'anasi o'tkazgan. Bu hol shogirdga "usta"lik maqomining berilishining rasmiy ifodasi edi.

Bu o'rinda qayd etish lozimki, Xorazmdagi hunarmandlar uyushmasi rahbariyati ikki kishidan iborat bo'lib, uyushma boshlig'i kalontar va uning yordamchisi peykaldan iborat edi. Hunarmandlar uyushmasi "kasaba" deb atalgan [5.1965.C.64]. Bir hunarga mansub hunarmand ustalarни "ulpagar" deb atalgan [6.1971.C.123]. Lekin ayrim hunarmandchilik sohalarida O'rta Osiyoning boshqa hududlaridagi kabi peykal vakolatlarini bajarayotgan shaxs oqsoqol deb ham atalgan. Bunday shaxslar ko'pincha ota-bobosi ham shu hunar bilan shug'ullangan taniqli hunarmandlardan saylangan [4.2001.C.68].

Hunarmandlar uyushmasi boshlig'i bo'lgan kalontar hunarmandchilikning har bir sohasida eng katta nufuzga ega shaxs sifatida faoliyat yuritgan. Ayrim hunar sohalarida, xususan mamlakat hayotida muhim o'rinn tutgan hunarlar, xususan, quruvchilik hunarida kalontar mahalliy hukumdar tomonidan tayinlangan va xon tomonidan tasdiqlangan [7.1926.C.83].

Kalontarga katta huquqlar berilgan bo'lib, hunarmandlar uyushmasiga qarashli jamoatning a'zolaridan biri shu davrda amal qilingan qonunlarga xilof ish yuritgan bo'lsa, unga nisbatan jinoyatiga yarasha jazoni belgilashi mumkin bo'lgan. Bunday hollardan biri haqida chiqarilgan rasmiy xulosa qozi-ul-quzzot qozi Muhammad Safo ibn Avaz Muhammad 1280 (1863-1864) tomonidan tasdiqlangan [4.2001.C.200].

Kalontarlik otadan o'g'ilga meros tariqasida o'tgan hollari ham mavjud. 1892 yilga oid hujjatlarning birida "Yusuf kalontarning o'g'li Abul Qosim kalontar..." [4.2001.C.240] – degan qayd ham tasdiqlaydi.

Kalontarlar katta mulk sohiblari ham edi. Ular nafaqat muayyan turdag'i mahsulot ishlab chiqarish, balki uning savdosida ham faol ishtirok etganlar. Xususan, kalontarlar hunarmandlarning boshqa shaharlar va xorij bilan olib boradigan savdo-sotiq munosabatlarini nazorat qilib, karvonboshilar bilan birgalikda savdo karvoniga doir janjallarni, muammolarni ham hal qilganlar [8.ЎзР ФАШИ, № 10231].

Fotiha berish marosimida usta va shogird bir-biriga sovg'a berishi rasm bo'lgan. Shogird ustaga to'n va sarpo bergan. Usta esa "ustalik" maqomini olayotgan shogirdiga hunarmandchilikda zarur ish quollarini hadya qilgan. Masalan, zargarlik hunarida ustoz shogirdga tarozi va to'kich kabilarni tortiq qilgan [3.2022. Дала ёзувлари]. Mazkur udum XX asr oxirlarida ham saqlanib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Харитонович Д.Э. Ремесло. Цехи и миф // Жизнь города и деятельность горожан. – М.: Наука, 1999. – С. 119.
- Мукминова Р.Г. Социальная дифференциация населения городов Узбекистана конец XV – XVI в. – Ташкент, 1985. – С. 45.
- Дала ёзувлари. Хива шахри, 2022 йил.
- Каталог хивинских казийских документов XIX – начале XX вв. 2001. – С. 3.
- Шамансурова А.. Интересные материалы о ремесленных организациях в Хиве XIX века // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1965. – № 10. – С. 64.
- Джаббаров. И.М. Ремесло узбеков южного Хорезма в конце XIX -начале XX в. // Труды Института этнографии им. Н.Н. Миклухо-Маклая. – Л., 1971. Т. 97. – С. 123.
- Современный кишлак Средней Азии. Вып. II. – Тошкент, 1926. – С. 83.
- Сафаров Б. Хоразм тарихи 1864–1934. ЎзР ФАШИ, № 10231 рақамли қўлёзма. – 15a варақ.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON, 2024

9. Дала ёзувлари. Хива шаҳри, 2022 йил.
10. Дала ёзувлари. Урганч шаҳри, 2022 йил.
11. Иванов П.П. Архив хивинских ханов. Новые источники для истории Средней Азии XIX в. / Записки ИВ АН СССР. Т. VII. Б., - Л., 1939. – С. 142.
12. Шомансурова А. Интересные материалы о ремесленных организациях в Хиве XIX века // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1965. – № 10. – С. 64.
13. Ўзбекистон Миллий университети музей фонди, инв. № 210174. – 2 вараг.